“RANGLARNING PSIXOLOGIK ASOSLARI”

Shavkatov Furqatbek Shuhratjon o‘g‘li
Andijon davlat pedagogika instituti
Magistratura bo‘limi “Tasviriy san‘at” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti.
shavkatovfurqatbek999@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.20024732

Annotatsiya: Ranglarning inson psixikasiga ta’siri, ularning hissiy va ruhiy holat bilan bog‘liqligi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Ranglar inson kayfiyati, idroki va xulq-atvoriga bevosita ta’sir ko‘rsatishi, shuningdek, ta’lim jarayonida va tasviriy san’atda muhim ahamiyat kasb etishi yoritiladi. Ranglarning iliq va sovuq turlari, ularning psixologik xususiyatlari hamda inson ongida uyg‘otadigan assotsiatsiyalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: rang, rang psixologiyasi, hissiyot, idrok, iliq ranglar, sovuq ranglar, kayfiyat, ta’sir, psixologik holat, tasviriy san’at, ranglarning ramziy ma’nosi

Аннотация: Научно проанализировано влияние цветов на человеческую психику, их связь с эмоциональными и психическими состояниями. Подчеркивается прямое воздействие цветов на настроение, восприятие и поведение человека, а также их важность в образовательном процессе и в изобразительном искусстве. Раскрываются теплые и холодные оттенки цветов, их психологические свойства и ассоциации, которые они вызывают в человеческом сознании.

Ключевые слова: цвет, психология цвета, эмоции, восприятие, теплые цвета, холодные цвета, настроение, аффект, психологическое состояние, изобразительное искусство, символическое значение цветов

Annotation. The impact of colors on the human psyche, their connection with emotional and mental states, is scientifically analyzed. The direct impact of colors on human mood, perception and behavior, as well as their importance in the educational process and in the visual arts, are highlighted. The warm and cold types of colors, their psychological properties and the associations they evoke in the human mind are revealed.

Keywords: color, color psychology, emotion, perception, warm colors, cool colors, mood, affect, psychological state, visual arts, symbolic meaning of colors

Kirish Ranglar inson hayotida muhim o‘rin tutib, u nafaqat tashqi olamni idrok etish vositasi, balki inson ruhiy holatiga kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi omil hamdir. Har bir rang ma’lum bir hissiyot, kayfiyat va psixologik holatni ifodalaydi. Shu sababli ranglar qadimdan san’at, me’morchilik, dizayn va kundalik hayotda muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ranglarning psixologik asoslarini o‘rganish

insonning ranglarga bo‘lgan munosabati, ularning ong va his-tuyg‘ularga ta’sirini anglashga yordam beradi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida ranglardan to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va bilimlarni samarali o‘zlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kunda rang psixologiyasi nafaqat tasviriy san’atda, balki reklama, interyer dizayni, marketing va pedagogika sohalarida ham keng qo‘llanilmoqda. Shu bois ranglarning psixologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism Ranglarning psixologik asoslari insonning ranglarni qabul qilishi va ularga nisbatan hissiy munosabati bilan chambarchas bog‘liqdir. Har bir rang inson ongida ma’lum tasavvur va kechinmalarni uyg‘otadi. Bu jarayon biologik, psixologik va madaniy omillar ta’sirida shakllanadi. Avvalo, ranglar ikki asosiy guruhga — iliq va sovuq ranglarga bo‘linadi. Iliq ranglar (qizil, sariq, to‘q sariq) insonda quvnoqlik, faollik va energiya hissini uyg‘otadi. Masalan, qizil rang diqqatni tez jalb qiladi, yurak urishini tezlashtiradi va hayajon hissini kuchaytiradi. Shu sababli u ko‘pincha reklama va ogohlantiruvchi belgilar uchun qo‘llaniladi. Sariq rang esa quvonch, yorug‘lik va iliqlik ramzi bo‘lib, inson kayfiyatini ko‘taradi. Sovuq ranglar (ko‘k, yashil, binafsha) esa aksincha, tinchlantiruvchi va muvozanatlashtiruvchi ta’sirga ega. Ko‘k rang ishonch, barqarorlik va sokinlikni ifodalaydi. Yashil rang tabiat bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘zga dam beradi va ruhiy xotirjamlikni ta’minlaydi. Binafsha rang esa ko‘proq sirli va ijodiy tafakkur bilan bog‘lanadi. Ranglarning psixologik ta’siri insonning yoshi, jinsi, milliyati va shaxsiy tajribasiga qarab ham o‘zgarishi mumkin. Masalan, ba’zi madaniyatlarda oq rang poklik va beg‘uborlik timsoli bo‘lsa, boshqalarida u motam ramzi sifatida qabul qilinadi. Shu jihatdan ranglarning ramziy ma’nosi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, ranglar inson faoliyatiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ta’lim jarayonida ranglardan to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilarning diqqatini jamlash, xotirasini mustahkamlash va o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirishga yordam beradi. Masalan, yorqin ranglar diqqatni jalb qilsa, pastel ranglar esa charchoqni kamaytiradi va qulay muhit yaratadi. Shuningdek, ranglar kombinatsiyasi ham muhim hisoblanadi. To‘g‘ri tanlangan ranglar uyg‘unligi estetik zavq bag‘ishlabgina qolmay, balki inson ruhiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Noto‘g‘ri yoki keskin ranglar uyg‘unligi esa aksincha, bezovtalik va noqulaylik hissini keltirib chiqarishi mumkin. Umuman olganda, ranglarning psixologik asoslarini chuqur o‘rganish ularni turli sohalarda samarali qo‘llash imkonini beradi va inson faoliyatining sifatini oshirishga. [1]

[1] *The Art of Color*. New York: Wiley, Itten, J. 1973.

Ko‘z - optikaviy asbob va ko‘rish a’zosi

Bizning ko‘zimiz miya hamda organizmning asab tizimi bilan chambarchas bog‘langan.

Agar ko‘zning tuzilishini fotoapparat, kino olish apparati va televizion kamera kabi hozirgi zamon optik apparatlarining tuzilishi bilan taqqoslasak, ular o‘rtasida o‘xshashlik borligini ko‘rish mumkin.

Ko‘z diametri 23–24 mm bo‘lgan, biroz botiq shaklli sharsimon (ko‘z soqqasi) jismdan iborat. Ko‘z oq rangli mustahkam qobiq — sklera bilan o‘ralgan. Uni oddiy tilda ko‘zning oqi deb ataladi.

Ikkala ko‘z ham kalla suyagining ko‘z chuqurchasida, miyaga yaqin joyda joylashgan bo‘lib, bir xil tuzilgan va miya bilan asab tolalari orqali murakkab tarzda bog‘langan.

Ko‘z ikki asosiy qismdan iborat: optikaviy qism va ko‘rish qismi. Endi ko‘zning optikaviy qismi bilan tanishamiz. (6-rasm. a,b.).





(6-rasm. a,b.).

a: 1-shox parda; 2-qorachiq.

b: 1-koʻrish nervi; 2-koʻr dogʻ; 3-tomirli qobiq; 4-sariq dogʻ;

5-shishasimon tana; 6-oqsil parda; 7-yoy parda; 8-gavhar; 9-shox parda.

Koʻz qorachigʻi kamalak pardasining oʻrtasida joylashgan dumaloq teshikchadan iborat. Yorugʻlik shu qorachiq orqali koʻz soqqasiga oʻtadi.

Kamalak parda qobiq-sklera bilan ulangan murakkab toʻqimadir. U odamlar koʻzining turli rangini belgilaydi. Unda kulrang muskul tolalari boʻlib, ular bizning asab tizimimiz bilan bogʻlangan. Ravshan yorugʻlikda bu tolalar qorachiqni bizning ixtiyorimizga bogʻliq boʻlmagan holda 2mm gacha qisqartiradi, yorugʻlik kamayganda esa 8mm gacha kengaytiradi. Demak, koʻz qorachiqlari jonli diafragma vazifasini bajaradi.

Shox parda taxminan 1mm qalinlikdagi shaffof va mustahkam qobiq boʻlib, diametri 12mm li sferik kosacha shakliga ega. Shox parda skleraning davomi hisoblanadi.

Shox pardaning orqasida kemirchaksimon shaffof jism-gavhar joylashgan. Gavhar muskullar bilan oʻralgan boʻlib, bu muskullar unga hamda skleraga ulangan.

Koʻz gavhari diametri 8-10mm boʻlgan ikkiyoqlama qavariq linzadan iborat. Uning qorachiq tomon qaragan old yuzasi orqa tomon yuzasiga nisbatan kamroq qavariqdir. Gavhar bir necha qavat shaffof moddalar qatlamidan tashkil topgan.

Shox parda bilan kamalak parda orasida suvsimon suyuqlik mavjud, gavhar esa quyuq modda-shishasimon tana bilan toʻlgan.

Shox parda, suvsimon suyuqlik, gavhar va shishasimon tana-bularning hammasi birgalikda koʻzning murakkab obyektiv vazifasini bajaradi.

Koʻz obyektivi va fotoapparat obyektivi bir xil optik xossaga ega-ular buyumlarning haqiqiy, kichraytirilgan va teskari tasvirini hosil qiladi. Biroq fotoapparatda buyumlar tasviri fotoplastinkada paydo boʻlsa, koʻzda esa murakkab nerv toʻqimasi-koʻz toʻr pardasida hosil boʻladi.

Koʻrish xuddi shu toʻr pardadan boshlanadi.

Koʻz toʻr pardasi qanday tuzilgan?

Koʻrish nervlari bosh miyaning koʻrish markazidan chiqib, koʻz sohasiga kirib boradi va toʻr pardani tashkil qiluvchi murakkab nerv toʻqimasi bilan bogʻlanadi.

Har bir koʻrish nervi millionlab nerv tolalaridan tashkil topgan. Har bir tola koʻz sohasiga kirib tarmoqlanadi va taxminan 130 million yorugʻlikni sezuvchi nerv uchlari qatlamini hosil qiladi. Ushbu qatlamning qalinligi taxminan 0,2mm boʻlib, u koʻzning toʻr pardasi deb ataladi.

To‘r pardaning markazi yaqinida yorug‘likni juda yaxshi sezuvchi sariq dog‘ joylashgan. Uning markazida markaziy chuqurcha mavjud. Agar biz yetarlicha yoritilgan buyumni aniq ko‘rsak, bu shuni bildiradiki, buyumning tasviri ko‘zimizning sariq dog‘ida aniq hosil bo‘lgan. Buyumning mayda qismlarini ham aniqlik bilan ko‘rayotgan bo‘lsak, demak, ularning tasviri ko‘z to‘r pardasining markaziy chuqurchasida aniq shakllangan.

Feruza ko‘zlar siri

Ko‘k, yashil, zangori, sariq, to‘q sariq, jigarrang va qora ko‘zlar mavjud… Keling, ushbu hodisani izohlashga harakat qilaylik.

Ko‘z rangi stromaga (o‘zbekcha “to‘shama” ma’nosida) bog‘liq, ya’ni u ko‘z tomirli pardasining davom etishi bo‘lgan biriktiruvchi tayanch qatlamdan kelib chiqadi. Chunki ushbu qatlam to‘qimasida melanin deb ataluvchi bo‘yovchi modda mavjud.

Siz ko‘rib turgan rasmda stroma tadqiqotchi o‘tirgan tomonga yirik tomirli qatlam tomoni bilan qaratilgan. Uning ostida tashqi ta’sirlardan himoya qiluvchi unsur-xoriokapillyar qatlami joylashgan bo‘lib, u o‘z navbatida pigmentli shilliq pardaga tegib turadi. Shilliq pardadan keyin to‘r, uning ortida esa rangdor parda joylashgan. Shilliq va rangdor pardalar orasida kipriklar saf tortib turadi. Stroma va unga qo‘shni pardaning tomirlari melanoforlar-ya’ni qora yoki to‘q jigarrang rangdor moddali to‘qimalar qavati bilan o‘ralgan, va aynan shu qatlam ko‘z rangini belgilaydi. Ko‘z rangi pigmentlarning miqdori va ularning to‘plami qanchalik katta ekanligiga bog‘liq. Ma’lumki, melanoforlar qancha ko‘p bo‘lsa va tarkibidagi pigment darajasi shunchalik yuqori bo‘lsa, ko‘zlar shunchalik qorayadi; aks holda rangi «o‘chib» boraveradi.[2]

Bu qonuniyatning tabiiy jarayonlari pigment kamayishiga olib keladi va ko‘z rangi asta-sekin «o‘chib» boradi. Go‘daklarda, ayniqsa oq yoki sariq irqqa mansub bolalarda, tug‘ilganda ko‘zlar ko‘k bo‘lishi mumkin. Biroq yoshi kattalashgani sari melanofor to‘qimalarida pigment to‘planadi va ko‘z pardasi rangi qorayadi. Natijada, ko‘zlar och jigarrangdan to‘q jigarranggacha o‘zgaradi.

Xo‘sh, endi mutlaq ko‘k, havorang va yashil ko‘zlar-chi? Ularni qanday izohlash mumkin? Axir ko‘z pardasida bunday pigmentlar mavjud emas-ku!

Maxsus adabiyotlarda bu ajoyib hodisaning aniq izohi berilmagan. Florensiyalik buyuk rassom Leonardo da Vinchi o‘z risolalarida ko‘z oldida turgan manzarani to‘g‘ri tasvirlash mahoratining qonuniyatlarini bayon qiladi. U tasvirda yorug‘lik va soya mutanosibligi qoidalarini batafsil tushuntiradi. Shuningdek, u

[2] *Interaction of Color*. Yale University Press, Albers, J. 1963.

tabiatning bir ajib qonuniyatiga e'tibor qaratadi: olis masofadagi narsa nafaqat kichrayib, balki rangi ham biroz xiralashgan tarzda ko'rinadi. Shunga ko'ra, ulug' rassomning nazariyasiga ko'ra, manzarani tasvirlashda uzoqdagi narsalarning shaklini kichraytirib chizish bilan kifoyalanmaslik kerak. Oldingi rejada turgan narsalarni tabiiy ranglarda tasvirlash, orqaroqdagi manzarani esa yengil xiralashgan, biroz havorang ohangdagi bo'yoda ifodalash zarur. Leonardo da Vinchi mo'yqalamiga mansub sehrli manzaralarda aynan shu qonuniyat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Oq-sariq irqqa mansub kishilarda ko'z pardasidagi pigmentlar oz bo'lib, uning qalinligi 300 mikrondan oshmaydi. Shu sababli u unchalik shaffof emas; pigmentli to'qimalar ustini qoplagan o'ziga xos yupqa parda ham aynan shu holat bilan bog'liq. Bu yerda **Leonardo da Vinchi** tasvirlagan Toskaniya tepaliklari manzarasidagi havorang va ko'k-yashil ranglar illuziyasi yuzaga keladi.

Albatta, bu da'volar faqat taxmindan oshmaydi. Biroq, yana bir kuzatish yuqoridagi fikrimizni tasdiqlashi mumkin. Ba'zi kishilarning tanasiga tushirilgan tatuirovkalar har doim havorang rangda ko'rinadi, aslida esa ular qora tus bilan tushirilgan. Qizdirilgan ignalar terini yallig'lantiradi, qora tus esa teri ostiga kirib, uning ustini qoplagan nisbatan shaffof parda orqali havorang siyoh rangida ko'rinadi. Pigmenti oz bo'lgan ko'z pardasida ham xuddi shunday hodisa kuzatilmayaptimi?

Biz yuqorida pigment to'qimasining nisbatan shaffof parda ichida nur sochib ko'rinishiga e'tibor qilgan edik. Endi esa spektrning ko'rinadigan qismi nurlarining bevosita stromadan, ya'ni ko'z pardasining to'shamasidan aks etishi haqida fikr yuritamiz.

Agar tog'larda kuzatgan bo'lsangiz, ajoyib bir hodisaga guvoh bo'lgan bo'lasiz: yam-yashil o'simliklar bilan qoplangan, unchalik olis bo'lmagan tog'lar havorang rangda ko'rinadi. Shu bilan birga, bu hodisa vaqtinchalik bo'lib, tog'larni qaysi burchak ostida ko'rayotganimizga ham bog'liq. Biroq ko'k, havorang va kulrang ko'zlar rangi doimiy ravishda o'zgarib turadi. Bu hodisa esa o'sha kishining ko'ziga masofa yoki qarash burchagidan qat'i nazar, his-hayajon va emotsional holat ta'sirida yuzaga chiqadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, hissiy holat kishining ko'zida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Kechinmalarning ijobiy yoki salbiyligiga bog'liq ravishda ko'z qorachig'i kichrayadi yoki kengayadi, ko'z pardasi tomirlaridagi qon oqimi kuchayadi yoki susayadi va natijada uning tuzilishi o'zgaradi. Demak, ko'z pardasi bir oz shaffoflashib, biroz xira tus oladi. Ko'z gavhari-ya'ni oldingi sirt qismi aks

ettirish qobiliyati-ham o‘zgaradi. Bularning natijasida ko‘z rangida ham sezilarli o‘zgarish yuz beradi, deb aytish mumkin.

Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: odam ko‘zlarida ko‘m-ko‘k, havorang va yashil pigmentlar mavjud emas, ammo shunday rangdagi ko‘zlar uchraydi. Demak, bunday hollarda ko‘z pardasining rangi pigmentlarning miqdori yoki turi bilan emas, balki boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Fikrimizcha, bu yerda melanoforlari kam bo‘lgan pigment to‘qimalaridan shaffof parda ostidan «nur sochilishi», shuningdek, uning refleks va nur qaytarish xususiyatlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu tariqa, ko‘zlarning turli ranglarda namoyon bo‘lish sababi hozircha boshqa tarzda izohlanmagan, deb aytish mumkin.

Ko‘z rangi va fe’l-atvor

Ular o‘rtasida aniq aloqadorlik borligiga ishonish qiyin. Biroq so‘nggi paytlarda ayrim ruhshunoslar shunday aloqadorlik mavjud, deb ta’kidlashmoqda. Kuzatishlar shundan darak beradi: qora ko‘zli kishilar odatda qat’iyatli va bardoshli bo‘ladi. Shu bilan birga, xavf-xatarga duch kelganida yoki tang vaziyatlarda ularni his-hayajon egallaydi. Bunday odamlar jo‘shqin va shijoatli bo‘lib, rahbar lavozimida turganda xodimlarni ham talabchanlik bilan boshqaradi. Ammo nogahoniy muammolar yuzaga kelganda, ular tezda eng muhim yechimni topishga qodir. Eskicha ish uslublarini yoqlamaydi va agar maqsadga erisha olmasa, vazifasidan voz kechishga ham tayyor bo‘ladi. Shu bilan birga, ular doimo qat’iyatli va dadil bo‘lishiga qaramay, katta aql talab qilmaydigan oddiy muammolar oldida ojizlik qilishi mumkin.

Och-jigar rang ko‘z egasi odatda o‘z qobig‘iga o‘ralib olgan, ich-ichidan o‘ylovchi va o‘zini o‘ylaydigan kishilardir. Ular bir xil vazifalarni osongina bajarishadi, ammo boshqadan buyruq olishni qiyin ko‘radilar. Aksincha, o‘z holiga qo‘yilsa, juda samarali ishlashadi.

Ko‘k ko‘zli kishilar chidamli, hissiyotlariga unchalik berilmaydigan odamlar bo‘lib, turmushdagi bir xillik ularga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Ular odatda badqovoq, dilgir va fe’l-xuyli bo‘ladi.[3]

Rang ko‘r - hol so‘r

Ba’zi ruhshunoslarning ta’kidlashicha, odamning qaysi rangni yoqtirishiga qarab, uning fe’l-atvorining asosiy xususiyatlarini aniqlash mumkin.

Shu taxminga asoslanib, hattoki qiziqarli test ham ishlab chiqilgan. Demak, siz qaysi rangni yoqtirasiz?

[3] *Color Psychology and Color Therapy*. New York: McGraw-Hill, Birren, F. 1950.

Agar qizil rangni afzal ko‘rsangiz, siz dilbars va tashqi ta’sirlarga sezgir, ammo o‘zingizga katta ishonchga ega odamsiz. O‘z haqingizga shubha qilishingiz mumkin, lekin shunga qaramay, fikringizni qat’iyat bilan himoya qilasiz. Ba’zan munozara yoki bahslarda mag‘lub bo‘lsangiz, kayfiyatingiz tushib ketadi. Shu bilan birga, yaqinlaringiz va do‘stlaringizga nisbatan o‘ta mehribon bo‘lib, oqibatliligingiz bilan ajralib turasiz.

Pushti rangni yoqtiradigan odamlar ko‘nglining nozikligi bilan ajralib turadi. Ular xayolparast bo‘lib, ba’zan shirin xayollarga berilib ketishadi. Agar siz shu toifaga mansub bo‘lsangiz, go‘zallik va nafislik sizni chuqur ta’sirlantiradi, ammo ishbilarmonlik sizga unchalik xos emas; ko‘proq orzu qilishni yoqtirasiz. Haqiqiy hayotni esa juda soddalashtirilgan va jo‘n tarzda tasavvur qilasiz.

Agar zarg‘aldoq rangni yoqtirsangiz, siz o‘zingizni o‘rab turgan olamga qiziqib, havas bilan boqadigan va hayotni sevuvchi odamsiz. Sizda kuchli iroda, aql-zakovot, iste’dod va ijodkorlik kabi xususiyatlar mujassam. Juda mag’rur bo‘lsangiz-da, bu xususiyat sizga aslo to‘sqinlik qilmaydi. O‘z rejalaringizni amalga oshirishda astoydil harakat qilasiz; «harakatda baraka bor» deganlaridek, har bir ishni to‘la-to‘kis, imkon qadar ziyodasi bilan bajarishga intilasiz. Biroq, pishib yetilgan ishlarning hammasini doimo amalga oshirish qo‘lingizdan kelavermasligi mumkin.

Balki siz sariq rangni yoqtirasiz? Unda siz juda quvnoq, dilkash, faol va harakatchan odamsiz. O‘tkir zehn va aql-zakovotingiz umr bo‘yi sizga yo‘ldosh bo‘ladi. Shu rangni sevish odatda faylasuflar, olimlar, tadbirkorlar va ishbilarmonlar orasida ham uchraydi.

Agar yashil rangni qadrlasangiz, sizning fe’l-atvoringizda biroz sustlikka moyillik mavjud. Shu bilan birga, siz odobli, to‘g‘ri, vazmin va quvnoq odamsiz. Biroq ba’zan yolg‘iz qolishni xohlaysiz va sirlaringizni yaqinlaringizga oshkor qilmaslikni afzal ko‘rasiz. Sizdagi faollik va sustlik esa me’yorida bo‘ladi.

Agar siz havorang rangga moyillik bildiradigan bo‘lsangiz, unda siz jonkuyar, ziyorak, kuzatuvchan va farosatli odamsiz, lekin unchalik mustaqil emassiz. Siz tabiatan ko‘proq orzu qilishni yoqtirasiz. Shu bilan birga, son-sanoqsiz shirin orzu-xayollaringiz sababli ko‘p narsani xohlaysiz, ammo ularni haqiqatga aylantirishni uddalay olmaysiz. Hayotdagi ba’zi qiyinchiliklarga uchrashingiz esa ko‘pincha jur’atsizligingizdan kelib chiqadi.

Sizga ko‘proq siyoh rang yoqadimi?

Unda siz serg‘ayrat, sho‘x va san’atga mehr qo‘yadigan odamsiz, lekin san’atning biror turi bilan shug‘ullanishni o‘zingizga ep ko‘rmaysiz. Sizning ajoyibligingiz shundaki, do‘stlaringiz va dugonalaringizga tanqidiy qaray

olsangiz-da, o‘zingizga nisbatan shunday tanqidiy yondasha olmaysiz. Fikrlashda va mulohaza yuritishda mustaqilsiz, lekin bundan ruhiy jihatdan biroz ezilasiz.

Agar siz jigarrang rangga moyil bo‘lsangiz, siz yoqimtoy, ishonuvchan va xotirjamsiz, shuningdek, yaxshilik va ezgulik his-tuyg‘ulari bilan ajralib turasiz. Biroq ba’zan jizzaki va hatto tajovuzkor bo‘lishingiz mumkin. Ko‘pincha sizda qat’iyat va faollik biroz yetishmaydi.

Balki siz kulrang rangni yoqtirasiz. Unda siz ehtiyotkor, tartibli va tinchlikni sevuvchi odamsiz. Har narsaga sinchkovlik bilan yondashasiz, boshqalarga havas qilmasligingiz va ularga shafqat ko‘rsatishni istamasligingiz bilan ajralib turasiz. Ba’zan rahmdillik hissi paydo bo‘lishi mumkin, ammo u tezda yo‘qoladi. Odamlar bilan munosabatda kam ishlaysiz va fikringizcha, har bir inson o‘z hayoti, taqdiri va baxti uchun mustaqil kurashishi kerak.

Agar siz qora rangni yoqtirsangiz, ko‘pincha uni ajoyibroq ko‘rinish uchun tanlaganingizni taxmin qilish mumkin. Yo‘qmi? Nima bo‘lmasin, siz nozik hissiyot va yashirin hayot tarziga moyil bo‘lishingiz bilan ajralib turasiz. Balandparvoz va faylasufona fikrlashni yoqtirasiz. Odamlar bilan, ayniqsa rahbarlar bilan tezda til topib, oson munosabat o‘rnata olasiz. Qisqasi, siz to‘g‘ri ma’noda diplomat odamsiz.

Oq rangni sevuvchilar haqida shunday deyishadi: ular ochiqko‘ngil, haqiqatgo‘y va murosasiz bo‘lib, boshqalarga ham, o‘zlariga ham o‘ta talabchan odamlar hisoblanadi.[4]

Yuzni o‘qish san’ati

Husayn Koshifiy Markaziy Osiyo olimlari orasida yuzni o‘qish san’ati bilan shug‘ullangan yagona mutafakkirdir.

Quyida ulug‘ olimning **«Axloqi Muxsiniy»** asaridan bir parchani e’tiboringizga havola qilamiz.

Kishining teri rangi juda oq, ko‘zlari ko‘k yoki yashil bo‘lsa, yuzidagi belgilar qattiqlik, bexoslik, xiyonat, fisqu-fasod va kam aqllik kabi xususiyatlarni bildiradi, degan fikr mavjud. Agar bunday odam tez qaraydigan ko‘zga, yassi peshonaga va boshida ko‘p sochga ega bo‘lsa, **Xukamo** nazarida u ayrim hollarda «qiyin xarakterli» hisoblanadi.

Sochning qalin (dag‘al) va qizil rangda bo‘lishi shijoat va ko‘ngil tozaligining belgisi hisoblanadi.

[4] *Art and Visual Perception*. University of California Press, Arnheim, R. 1974.

Gardan va elkada sochning ko‘p bo‘lishi jur’at va ba’zida ahmoqlik belgisi hisoblanadi. Siyna va qorinda ko‘p soch esa vaxshiylik (yovvoyi fe’l), fahmsizlik va jafoga moyillik belgisi sifatida qaraladi.

Sochning o‘rtacha qorayishi va qizilligi esa barcha xususiyatlarning o‘rta darajada ekanligidan dalolat beradi.

Peshonasi keng bo‘lib, unda ajin yoki tirish belgisi bo‘lmasa, bu beaqllik, lofchilik, xasislik va ojizlik belgisidir. Agar peshonaning o‘rta qismi (miyona) keng bo‘lsa, unda chin ajinlar va shikant (azob, mashaqqat) belgisi mavjud bo‘lsa, bu siddu muhabbat, fahm va ilm, xushyorlik hamda tadbirlilikni bildiradi.

Quloqning katta bo‘lishi ba’zan johillik belgisi sifatida qaraladi. Biroq ba’zi hollarda u hafizlik (saqlovchi, muhofaza qiluvchi) va tezkor xulqli bo‘lishni ham bildiradi.

Qoshning kengligi, sochining qalinligi va uzunligi qo‘pol so‘zlash yoki durush (qo‘pol) bo‘lish alomati hisoblanadi.

Qoshning qayrilganligi lofchilik va takabburlik belgisi hisoblanadi.

Qoshning qorayishi me’yorida bo‘lsa, bu farosatlilik va diyonatlilik alomati sifatida qaraladi.

Sochning yumshoqligi bedillik va qo‘rqoqlikni bildirsa, sochning qattiqligi esa diydasining qat’iyligi va kam fahmlilik alomati hisoblanadi.

Bilginki, ko‘zning tez-tez qarashi hasadgo‘ylik, xiyonatkorlik va behayolik belgisi hisoblanadi.

Ko‘z katta va kam harakat qilsa, bu nodonlik belgisi hisoblanadi.

Ko‘z kattaligi o‘rtacha bo‘lsa, bu fahm, xushyorlik, rostgo‘ylik va diyonatlilik belgisi hisoblanadi.

Burun katta (o‘loq) bo‘lsa, bu muloyimlik va yumshoqlik belgisi hisoblanadi. Agar burun egri bo‘lsa, bu shahvatni do‘st tutish alomati sifatida qaraladi.

Burun teshigi keng bo‘lsa, bu hasad va g‘azab belgisi hisoblanadi.

Burun yo‘g‘on va yassi bo‘lsa, bu yolg‘onlik belgisi hisoblanadi.

Og‘iz keng bo‘lsa, bu shijoatlilik belgisi hisoblanadi.

Labning qalinligi va yupqaligi me’yorida bo‘lsa, bu kengashlik va yaxshi xohishlik belgisi hisoblanadi.

Tish ag‘ri bo‘lsa, bu makr, hiyla va xiyonat belgisi hisoblanadi. Tishlarning orasi ochiq va silliq bo‘lsa, bu adolat va tadbirkorlik belgisi hisoblanadi.

Yuz go‘shti to‘la va o‘siq bo‘lsa, bu jaholat va xulqning tezligi belgisi hisoblanadi.

Ovoz baland va yo‘g‘on bo‘lsa, bu shijoat belgisi hisoblanadi.

Ovoz ingichka bo‘lsa, bu badgumonlik va vahm-xatarlik belgisi hisoblanadi.

Ovoz mo‘tadil va yoqimli bo‘lsa, bu tadbirkorlik va har ishni yaxshi saranjomlash belgisi hisoblanadi.

So‘z aytish vaqtida qo‘lni tebratish ziyraklik va tadbirlilik belgisi hisoblanadi.

Bo‘yining qisqaligi makr va ichki yomonlik belgisi hisoblanadi.

Bo‘y uzun va nozik bo‘lsa, bu ahmoqlik va qurbonlik belgisi hisoblanadi.

Bo‘yining yo‘g‘onligi jahli, hamoqat (nodonlik, ahmoqlik) va sust ko‘ngillik, pulxo‘rlik (ko‘p yeyish) belgisi hisoblanadi.

Qorni katta bo‘lishi johillik va ahmoqlik, sust ko‘ngil bo‘lishi esa nodonlik belgisi hisoblanadi.

Barmoqlarning uzunligi barcha holatlarda ulug‘lik va hurmatga ega bo‘lish belgisi hisoblanadi.

Panjaning yo‘g‘on va go‘shtdor bo‘lishi nodonlik hamda yuzning qattiq, qurumsoq bo‘lishi alomati hisoblanadi. Panjaning me’yorida bo‘lishi esa mo‘tadillik belgisi sanaladi.[5]

Xulosa Ranglarning psixologik asoslarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ranglar inson ruhiyati, kayfiyati va xulq-atvoriga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Har bir rang o‘ziga xos hissiy mazmun va psixologik xususiyatga ega bo‘lib, inson ongida turli tasavvur va kechinmalarni uyg‘otadi. Iliq va sovuq ranglarning farqli ta’siri, ularning inson organizmi va psixikasiga turlicha ta’sir etishi ranglardan ongli va maqsadli foydalanish zarurligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, ta’lim, san’at va dizayn sohalarida ranglarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ranglarning ta’siri individual va madaniy omillarga bog‘liq holda o‘zgarib borishi ularni chuqur o‘rganishni talab qiladi. To‘g‘ri tanlangan ranglar insonda ijobiy kayfiyat uyg‘otib, uning faoliyat samaradorligini oshiradi, noto‘g‘ri ranglar esa aks ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, ranglarning psixologik xususiyatlarini bilish va ulardan to‘g‘ri foydalanish inson hayotining turli jabhalarida muhim natijalarga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.The Art of Color. New York: Wiley, Itten, J. 1973.
2.Interaction of Color. Yale University Press, Albers, J. 1963.
3.Color Psychology and Color Therapy. New York: McGraw-Hill, Birren, F. 1950.
4.Art and Visual Perception. University of California Press, Arnheim, R. 1974.
5.Color and Meaning: Art, Science and Symbolism. University of California Press, Gage, J. 1999.

[5] *Color and Meaning: Art, Science and Symbolism*. University of California Press, Gage, J. 1999.

6.Blue: The History of a Color. Princeton University Press, Pastoureau, M. 2001.
7.Theory of Colours. London, Goethe, J.W. 1810.
8. “Color Psychology: Effects of Perceiving Color on Psychological Functioning”. Annual Review of Psychology, Elliot, A.J., Maier, M.A. 2014.
9.“Relationship between Color and Emotion: A Study of College Students”. College Student Journal, Kaya, N., Epps, H. 2004.
10.“A Study of Colour Emotion and Colour Preference”. Color Research & Application, Ou, L.C., Luo, M.R., Woodcock, A., Wright, A. 2004.
11. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, Mirziyoyev, Sh.M. 2022.
12. Rahmonov, R. Rangshunoslik asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
13.Tasviriy san’at nazariyasi. Toshkent, Abdullayev, N. 2008.
14.San’at va rang uyg‘unligi. Toshkent, Qosimov, B. 2015.
15.Bakhtiyorovich, Ismonov Khurshidbek, and Ruziyev Nuriddin Mukhammadaliyevich. "Pairing, Their Own Aspects and Corresponding Methods of Work with Pairing in the Autocad Software." International Journal on Orange Technologies 3.12 (2021): 211-216.
16.qizi Abduraimova, Muazzamoy Abduqodir. "PERSPEKTIVA." INTERNATIONAL CONFERENCES. Vol. 1. No. 11. 2022.
17.Xurshidbek, Ismonov, Rustamov Umurzoq, and Abduraimova Muazzamoy. "MARKAZIY VA PARALLEL PROYEKSIYA ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO ‘RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.4 (2022): 70-81.
18.Ismonov, Xurshidbek Baxtiyorivich, and Muazzamoy Abduqodir qizi Abduraimova. "ORTOGONAL PROYEKSIYALAR VA MODELNI KO ‘RINISHLARI." Educational Research in Universal Sciences 1.3 (2022): 288-296.
19.Qizi, Abduraimova Muazzamoy Abduqodir. "PROJECTION AND AXONOMETRY."
20."UMUM TA’LIM MAKTABLARDA CHIZMACHILIK FANINI O‘QITISHNING HOZIR HOLATI." Oriental Art and Culture, Vol. 5, No. 6, 2024, pp. 65–69.
21.Khakimjanovch, I. M. A., & Abduqodirovna, A. M. Capabilities OF Computer Graphics. General Information About Graphic Programs. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(11), 114-117.
22.Mirzaev, S. O. Methodology for Organizing Exhibitions AND Creative Activities in Primary Schools. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 13(12), 150-154.
23.Ismonov, X. B., & Abduraimova, M. A. AUTOCAD DASTURIDA TUTASHMA BILAN ISHLASHNING MAQBUL USULLARI.

24.Ismonov, X., Rustamov, U., & Abduraimova, M. (2022). PERSPEKTIVA. PERSPEKTIV MASSHTABLAR. Science and innovation, 1(C6), 164-171.
25.Olimovich, M. S., Baxtiyorovich, I. X., & Shokirovna, Z. M. (2020). Problems of teaching fine arts and its history. ACADEMICA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL Учредители: Diva Enterprises Private Limited, 10(4), 69.
26.Mirzaev, S. O. Methodology for Organizing Exhibitions AND Creative Activities in Primary Schools. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 13(12), 150-154.
27.ОЛИМОВ, Л., МИРЗАЕВ, С., & ДАРМОНОВ, И. ТАСВИРИЙ САНЪАТ МУТАХАССИСЛИГИ ТАЛАБАЛАРИГА АДСОРБЦИЯ ҲОДИСАСИНИ ЎҚИТИШ. ILMIY XABARNOMA. НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Андижанский государственный университет им. ЗМ Бабура, (3), 111-112.
28.Mirzayev, S. O. TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI MAZMUNLI TASHKIL ETISHDA SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH.